

2025
1(21)

IQTISODIYOT VA TURIZM
xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali

ЭКОНОМИКА И ТУРИЗМ
международный научно-
инновационный журнал

ECONOMICS AND TOURISM
international scientific and
innovative journal

ISSN 2181-2551
E-ISSN 2181-2561

ISSN 2181-2551



9 772181 255890

E-ISSN 2181-2561



9 772181 256001



ISSN 2181-2551
E-ISSN 2181-256X

"IQTISODIYOT VA TURIZM"
xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali

«ЭКОНОМИКА И ТУРИЗМ»
международный научно- инновационной журнал

"ECONOMICS AND TOURISM"
international scientific and innovative journal

№1(21) 2025

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022 yil 30 apreldagi 315/5-son qarori bilan iqtisodiyot fanlari buyicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.



MUNDARIJA

Юлдашев Шухрат Ганиевич. Концепции циркулярной экономики и механизмы их реализации	5
Ismailov Dilshod Anvarjonovich. Foreign approaches to economic growth and prospects for utilizing its drivers in our country	25
Шоахмедов Шохрух Шорахимович. Концептуальные подходы стратегии повышения благосостояния населения в Узбекистане	34
Xidirova G.R. Turizmni mamlakat va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi oʻrni va ahamiyati	41
D.Sh.Yavmutov, B.M.Yuldosheva. Mintaqaning tabiiy resurs salohiyatini rekreatsion maqsadlarda baholash masalalari	52
Шадиева Гулнора Мардиевна. Развитие малого бизнеса в Узбекистане: стратегии поддержки и перспективы роста.....	60
Xodjayeva Dilbar. Kambagʻallikni aniqlashning kontseptual yondashuvlari.....	68
Мустафоев Азимжон Фаррухович. Нодавлат таълим ташкилотларида харажатларнинг таълим хизматлари таннархига таъсири ва ҳисобини такомиллаштириш	76
Raximov Toʻxtabek Jumaboyevich, Sharipbayev Bobur Marks oʻgʻli. Yashil iqtisodiyot-barqaror rivojlanishning ustuvor yoʻnalishi sifatida	85
D.B. Oʻroqova. Mintaqaviy turizmni innovatsion rivojlanishi va klasterlarini boshqarish mexanizmi	93
Musayev Malikjon Karomatovich. “Ziyorat” va “sayohat” tushunchalarining qiyosiy tahlili	102
Аҳмаджон Таниев. Ахборот-коммуникация технологиялари ва Интернетнинг туризм соҳасига таъсири	110

Musayev Malikjon Karomatovich*Buxoro Davlat Universiteti, "Turizm va mehmonxona xo'jaligi"
kafedrası tayanch doktoranti*

“ZIYORAT” VA “SAYOHAT” TUSHUNCHALARINING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya:

Maqolada «ziyorat» va «sayyohat» tushunchalarining tarixiy hamda madaniy asoslari, ularning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati yoritib beriladi. Ziyorat hamda sayyohat orqali shakllangan an'anaviy qadriyatlarining saqlanishi va rivojlanishi, shuningdek, «ziyorat» va «sayohat» tushunchalari Venn diagrammasi orqali chuqur tahlil qilinadi. Tushunchalarining turli jihatdan umumiyliigi va farqlari yoritib beriladi va qiyosiy tahlil qilinadi. «Ziyorat» va «sayohat» tushunchalarining lug'aviy va ma'noviy jihatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Ziyorat turizmi, diniy turizm, muqaddas joylar, madaniy-tarixiy meros, Venn diagrammasi, ziyorat, sayohat, ta'riflar tahlili

Аннотация: В статье освещаются исторические и культурные основы понятий «паломничество» и «путешествие», их значение для развития общества. Сохранение и развитие традиционных ценностей, сформированных паломничеством, а также путешествиями, а также подробно анализируются концепции «паломничества» и «путешествия» с помощью диаграммы Венна. Определен и проведен сравнительный анализ общих сходств и различия понятий в различных аспектах. Рассматриваются словарный и духовные значения понятий «паломничество» и «путешествие».

Ключевые слова: Паломнический туризм, религиозный туризм, святые места, культурно-историческое наследие, диаграмма Венна, паломничество, путешествия, анализ определений

Abstract: The article highlights the historical and cultural foundations of the concepts of "pilgrimage" and "travel", their importance for the development of society. The preservation and development of traditional values shaped by pilgrimage, as well as travel, and the concepts of "pilgrimage" and "travel" are analyzed in detail using the Venn diagram. A comparative analysis of the general similarities and differences of concepts in various aspects is determined and carried out. The dictionary and spiritual meanings of the concepts "pilgrimage" and "journey" are considered.

Keywords: Pilgrimage tourism, religious tourism, holy sites, cultural and historical heritage, Venn diagram, pilgrimage, travel, definition analysis

Kirish

O'zbekiston Respublikasida turizm sohasi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda strategik yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilishi [1] bilan birga, xalqimizning boy tarixiy-madaniy merosini targ'ib etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, «ziyorat» va «sayohat» tushunchalari mamlakatimiz sharoitida bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lsa-da, ular mazmun-mohiyat jihatidan o'zaro farq qiladi.

Mavzuning dolzarbligi.

Mamlakatimizning tarixiy-madaniy merosi, muqaddas ziyoratgohlari hamda betakror turistik salohiyati turizm industriyasida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bunda ziyorat turizmi nafaqat diniy ehtiyojlarni qondirish, balki milliy an'analar va qadriyatlarni asrab-avaylash, aholida yuksak

ma'naviyatni shakllantirish vazifasini ham bajaradi. Sayohat esa umumiy ma'noda madaniy, ma'rifiy, tabiiy, ta'limiy yoki ko'ngilochar maqsadlarda amalga oshiriladigan safardir. Dunyo tajribasida ham ziyorat turizmi turistik sayohatlar mamlakat ichki yalpi mahsuloti ulushini oshirishda, yangi ish o'rinlari yaratishda va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Maqsad va vazifalar.

Ushbu maqoladan ko'zlangan asosiy maqsad – “ziyosat” va “sayohat” tushunchalarining ilmiy-nazariy asoslarini hamda ular orasidagi farqli va o'xshash jihatlarni aniqlash orqali turizm sohasi rivojiga hissa qo'shuvchi tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bu maqsadda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

1. “ziyosat” tushunchasining tarixiy va nazariy asoslarini o'rganish;
2. “sayohat” tushunchasining mamlakatimiz turizm sohasidagi o'rnini aniqlash;
3. “ziyosat” va “sayohat” turlarining umumiy va farqli jihatlarni qiyosiy tahlil qilish;

Tadqiqot obyekti va predmeti.

Mazkur maqolaning tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasidagi turizm sohasi, ziyorat maskanlari olinadi. Tadqiqot predmeti esa ushbu ziyorat va sayohatning ilmiy-nazariy asoslari, huquqiy bazasi va amaliy jarayonlarda ko'rinishlaridir.

Tadqiqot usullari.

Maqolada qiyosiy-tahlil, nazariy tahlil, manbaalarni o'rganish va tarkibiy-tahlil (kontent-analiz) usullaridan foydalanildi. Shu bilan birga, “O'zbekiston Respublikasining Turizm to'g'risida”gi Qonuni[4], Prezident farmonlari, xususan, turizmni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar o'rganildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan bir qator qarorlarda turizm sohasini yanada rivojlantirish uchun xorijiy tajribalarni joriy etish, kadrlar salohiyatini oshirish, infratuzilmani yaxshilash, qonunchilik bazasini mustahkamlash kabi muhim masalalar ko'rib chiqilgan[5].

Shunday qilib, ushbu maqolada “ziyosat” va “sayohat” tushunchalari qiyosiy tahlil etilib, mavjud ilmiy-nazariy qarashlar, huquqiy asoslar hamda amaliy holatlar saralanadi. Natijada turizm sohasini yanada takomillashtirish, uning iqtisodiy va ma'naviy salohiyatini yuksaltirish borasida ilmiy hamda amaliy tavsiyalar shakllantiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ziyorat turizmini ilmiy o'rganishda bir qator xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar turli yondashuvlar hamda nazariy modellar taklif etishgan. Bugungi kunda mavjud adabiyotlarni sharh qilish orqali ushbu soha qay darajada rivojlanganini ko'rish, shuningdek, ehtiyoj mavjud bo'lgan yo'nalishlar hamda ilmiy bo'shliqlarni aniqlash mumkin.

1-jadval. „Ziyorat turizmi” tushunchasiga oid turli ta'riflar

Ta'rif mualliflari va manbalari	Ta'riflar
Smith V. L.	"Diniy turizm" atamasi asosan ma'naviy yoki diniy e'tiqodlar tufayli amalga oshiriladigan sayohatni bildiradi.[6]
Gisbert Rinsehede	Ziyorat turizmini to'liq yoki qisman diniy maqsadlarga asoslangan sayohatlar deb ta'riflagan.[7]
A. V. Babkin	Diniy turizm «odatiy yashash joyidan tashqarida joylashgan muqaddas joylar va diniy markazlarga sayohat qilish» degan ma'noni anglatadi. Diniy turizm ikki asosiy toifaga bo'linadi: ziyorat turizmi va ekskursiyaviy va ma'rifiy (bilimga ega bulish) yo'nalishidagi diniy turizm. Ziyorat turizmi deb turli din vakillarining ziyorat qilish maqsadida sayohatlari tushuniladi.[8]

L. A. Brunyasheva	“Diniy turizm” va “ziyosat” tushunchalarini qiyoslab: “Tarixiy obidalar va diniy ziyoratgohlarni qarama-qarshi qo‘yishning hojati yo‘q, chunki bu tushunchalar bir-biri bilan kesishadi. tarixiy yodgorlik har doim ham sajda qilish obyekti emas, diniy ziyoratgoh esa busiz o‘ziga xosligini yo‘qotadi.[9]
Navro‘z-zoda Z. B.	Diniy (ziyosat) turizmi Olloh yo‘lidagi savobli va xayr-saxovatlikka yo‘naltirilgan sayyohlik faoliyati bo‘lib, u muqaddas joylar va tabarruk shaxslarga sajda va ibodatga asoslanadi.[10]
Kurbanova M. X.	“Ziyosat — bu insonning ichki va tashqi dunyosini poklash maqsadida, dunyoviy havaslardan voz kechib, Allohning roziligini istab amalga oshiriladigan sayohatdir.”[11]
Muallif ta’rifi	Ziyosat turizmi – bu hayotning qiyin damlarida odamzod taskin va tasalli topishi, o‘zini qiynayotgan savollariga javob izlash umidi, shuningdek yengillik his qilish uchun avliyo pirlarning muqaddas qadamjolariga tashrif buyurish istagidagi sayohatdir.

Diniy turizm va ziyosat turizmining o‘zaro o‘xshashligi shundaki, har ikkalasi ham muqaddas joylar, ibodatxonalar, mavjud dinlar tarixi, diniy marosimlar bilan bog‘liq.

Biroq ziyosat turizmida avvalo diniy-ruhiy maqsad ustuvor bo‘lsa, diniy turizmida ta’limiy, madaniy yoki tarixiy tomonlar ham birdek ahamiyat kasb etishi mumkin.

Chet el olimlari (Smit V. L., G. Rinsexe, N. Graburn) ko‘proq “diniy-ruhiy” asosga e’tibor qaratishsa, MDH mamlakatlari tadqiqotchilari (Babkin A. V., Vinokurov M. A., Pecheritsa Ye. V. va boshq.) diniy turizmni tarixiy, ma’rifiy, madaniy jarayonlar bilan ilmiy tarzda bog‘lashga harakat qiladilar.

Mahalliy (umuman olganda, MDH doirasida) tadqiqotchilar islom dini bilan bog‘liq konsepsiyalarga ko‘proq e’tibor qaratishadi, xususan, ibodat, savob amallari, Alloh roziligini topish kabi tushunchalar diniy turizm ta’riflarida asosiy motiv sifatida qayd etiladi.

Tahlil va natijalar

Yuqorida keltirilgan adabiyotlar tahlili “ziyosat turizmi” tushunchasining ko‘p qirrali ekanini va bir qator jihatlar – diniy, madaniy, tarixiy, iqtisodiy, ma’naviy – bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Mazkur tushunchani qay darajada keng yoritib berish esa mualliflar tomonidan qanday yondashuv tanlanishi bilan bog‘liq. Bir olim ma’naviy jihatlariga ko‘proq e’tibor bersa, ikkinchisi iqtisodiy samaradorlik yoki tarixiy-madaniy merosning ahamiyatini namoyon qilishni ustuvor qo‘yadi.

Diniy turizm sohasidagi xorijiy va mahalliy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, bugungi kunda ushbu tushunchani aniqlashda yagona yondashuv mavjud emas. Shunga qaramay, olimlar tomonidan berilgan ta’riflar va ularning tahlil qilishga xarakat kilindi.

"Turizm" so‘zining negizi hisoblangan «Tour» so‘zi lotincha "Tornare" va grekcha «Tornos» so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, uning ma’nosi "aylanish", "doira bo‘ylab harakatlanish"ni anglatadi.[12] Bu so‘z o‘rta asrlarda sayohat qilish yoki yo‘l yurishni ifoda qilishda qo‘llanila boshlagan. Turizm esa zamonaviy davrda sayohat va ko‘ngilochar maqsadlarda amalga oshiriladigan faoliyat turini bildirib kelmoqda.

Zamonaviy ingliz tilida "tur" so‘zi odatda odam turli joylarga tashrif buyuradigan, lekin oxirida boshlang‘ich nuqtasiga qaytadigan aylanma sayohatni anglatadi. Bu ko‘pincha dam olish yoki o‘yin-kulgi bilan bog‘liq. Shu asosda “turist” so‘zi shunday sayohatga yangi joylarni o‘rganish, madaniyat, diqqatga sazovor joylar va dam olish joylaridan bahramand bo‘lishni maqsad qilgan kishiga aytiladi. "Turizm" - bunday sayohatni tashkil etish va amalga oshirish bilan bog‘liq jarayon. Shunday kilib, turizm turli shakllarni - madaniy, sarguzasht, ekoturizm va boshqa ko‘plab turlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Bu so‘z o‘z ma’nosini o‘zgartirmasdan boshqa g‘arb tillariga ham kirib kelgan. Masalan, fransuzchada «aylanish» ma’nosiga to‘g‘ri keluvchi «tourisme» va «tour» so‘zlari hozirgi kunda ham ishlatilmoqda.[13] "To tour" fe’li 1746 yilda ingliz tilida paydo bo‘lgan, bu "sayohat qilish"

ma'nosini bildiradi. 1780 yilda esa "tourist" so'zi shakllandi, va 1811 yilda "Tourism" so'zi kelib chiqqan.[14] Bu so'zlar sayohat va ko'ngilochar maqsadlarda boshqa joylarga borish bilan bog'liq bo'lgan konsepsiyalarni ifoda etish uchun ishlatiladi.

Nemischada esa faqatgina «auslander» (ajnabiy yoki xorijiy) so'zi ishlatilar edi. 1958-yilda nemis tilida alohida e'tiborga olinib turizmning ekvivalenti bo'lmish «fremdenverkehr» yoki «tourismus», turist so'zining ekvivalenti esa «tourist» tarzida qo'llanila boshlandi».[15] Xalqaro Vebster lug'atida tur (tour) suzning ma'nosi «turar joyli sayohat» yoki «ekskursiya» deb ta'riflangan. Bu turdagi sayohatlar odatda bir nechta manzilni o'z ichiga oladi va oxir-oqibat sayohat boshlang'ich nuqtasiga qaytadi».[16] Sayohatchining o'ziga xos bir safari yakunlanib, u yana o'z yurtiga qaytib keladi.

Har bir sayohat qaytish nuqtasiga ega bo'lgani kabi, uyga qaytish ham har doim alohida xursandchilik va orziqib kutiladigan lahzadir. Sayohatchi yurtiga qaytganida esa u nafaqat yangi tajribalar, balki yangi dunyoqarash va xulosalar bilan ham boyib keladi. Bundan tashqari, u o'zi bilan birga yangi hikoyalar, do'stona munosabatlar va dunyoning turli joylarida uchratgan odamlar haqidagi esdaliklarni ham olib keladi.

“Ziyorat” – bu biror muqaddas joyga, masalan, qabr, mazor, qadamjo, masjid yoki boshqa diniy ahamiyatga ega bo'lgan joylarga maxsus maqsadda borishdir.

O'zbek tilining izohli lug'atida “ziyora” atamasi “muqaddas joylarga, mozar va qabristonlarga borib sig'inish”[17] degan ma'noda keltirilgan. Ziyorat qilish orqali inson o'zi uchun ahamiyatli bo'lgan shaxslarning xotirasini e'zozlaydi, ularning ma'naviy merosidan bahramand bo'ladi, farz amallarini bajarish bilan bir qatorda Allohdan mag'firat so'rash va duo qilishni niyat qiladi.

Ziyorat qilish turli dinlarda va madaniyatlarda turlicha shaklda bo'lishi mumkin. Islom dinida ziyoratning eng mashhur turlari haj va umra bo'lib, musulmonlar Makka va Madinaga borishadi. Bundan tashqari, musulmonlar payg'ambarlar, avliyolar yoki ulamolarning qabrlarini ziyorat qilish orqali ularga ehtirom ko'rsatadilar va Allohdan ular vositasida baraka so'raydilar.

Fanda, turli alomatlar bo'yicha tavsiflanadigan, ziyorat turizmining quyidagi turlari mavjud [18]:

1) qatnashuvchilar soni va oilaga taalluqlilik bo'yicha – individual (yakka tartibda), oilaviy va jamoaviy ziyoratchilar;

2) davomiylik bo'yicha – uzoq muddatli va qisqa muddatli ziyorat (rus pravoslav diniy qonunlariga asosan (kanon), haj safari qoidalariga binoan 10 kun va undan ortiq davom etadigan sayohat ziyorat deb qabul qilingan);

3) mavsumiylik bo'yicha – yil davomida amalga oshiriladigan ziyorat yoki ma'lum diniy bayramlarga uyushtirilgan ziyorat;

4) tashrif buyuriladigan obyektlar bo'yicha – turli dinlarga mansub ibodatxonalarga tashrif (cherkov, monastir, ibodatxona, masjid, xonaqo, supa), shuningdek tabiiy sig'inish joylari (tog'lar, ko'llar, g'orlar, buloqlar, daraxtzorlar);

5) ziyorat obyektining joylashuvi bo'yicha - ichki (davlat chegaralari miqyosida) va xorijiy ziyorat yo'nalishlari;

6) majburiylik yoki ixtiyoriylik bo'yicha – ixtiyoriy va majburiy ziyorat yo'nalishlari (masalan, islomda Makkaga hajga borish har bir musulmon uchun farz bo'lib hisoblanadi).

Odatda, ziyoratchilar ovqatlanish, tunash kabi xizmatlarning darajasi va sifatiga nisbatan uncha talabchan bo'lmaydilar. Tunash maqsadida ular hujralarda, chodirlardan tashkil topgan shaharchalarda (masalan, haj safari davomida), ibodatxonalarning yerida yoki to'g'ridan to'g'ri ko'chalarda qo'noq topishlari mumkin. Turli noz-ne'matlarni tanlash imkoniyati ham keng emas, ko'p hollarda oddiy hisoblanadi. Nasroniylik dini tarqalgan davlatlarda post davrida ovqat mos ravishda iste'mol qilinsa, Hindistonda u vegetarian (go'shtsiz) yoki islom diniga sig'inadigan hududlarda Ramazon oylari quyosh chiqishidan botishigacha umuman ovqatlamaslik.

Islom ensiklopediyasida Ziyorat suziga kuyidagicha ta'rif beriladi — (arab tilidan – «biror yerga yoki shaxs huzuriga borish) - muqaddas joylarga, mozar va qabristonlarga borib, muayyan rasm-rusumlarni bajarib kelish» degan ma'noni anglatadi.[19] Ziyorat marosimi odatda qabr tepasida Qur'onning ayrim suralari (ayniqsa Fotiha surasi)ni o'qib, marhum haqqiga duo qilish, shuningdek xayr-yehson, sadaqa berish kabilardan iborat. Islom dini aqidasi ko'ra, aziz-avliyolarning maqbaralariga ziyorat uchun borilganda ularning ruhlaridan madad so'rashlik, hojatlar ravo qilinishi, dardlarga shifo berilishi, farzand ato etilishi kabi iltijolar nojoizdir.[20]

Chunki, bu kabi amallarni ro'yobga chiqarish faqat Allohning ixtiyoridadir. Ziyorat qiluvchilar payg'ambar bo'ladimi, avliyo yoki tariqat shayxi bo'ladimi, ulardan najot so'rash o'rniga haqlariga duoi xayr qilish, sadaqa-ehson sallallohu alayhi va sallamoblarini ularning ruhlariga hadya yetish o'rinlidir. Islomda shaxsga sig'inish shirk sanaladi. Muhammad (sallallohu alayhi va sallam) o'zlarining bir hadisi shariflarida aytganlar: "Qabristonlarni ziyorat qilib turingizlar, zero u oxiratni eslatadi".[21] Oxiratni eslash esa, kishini yovuzlikdan uzoqlashtirib, ezgulikka yaqinlashtiradi.

Islomda ziyorat (arab. زيارة «ziyārah», «ziyorat») yoki ziyorat (fors. زیارت, «ziyārat», «ziyorat») Islom dinidagi payg'ambarlar va so'fiylar kabi hurmatli shaxslar bilan bog'liq joylarga ziyorat qilish shaklidir. Ziyorat qilinadigan joylarga masjidlar, maqbaralar va jang maydonlari kiradi. An'anaga ko'ra, turizmning bu turi Saudiya Arabistonida Haj va Umra bilan bog'liq edi. Ammo bugungi kunda ziyorat turizmi kengroq ma'noda, ya'ni islomiy ziyorat turizmining barcha turlari, jumladan, nafaqat ikki muqaddas manzil, balki musulmon sayyohlar diqqatga sazovor joylarni tomosha qilishni diniy burchlar bilan uyg'unlashtirishi mumkin bo'lgan ko'plab yangi joylarni ham o'z ichiga oladi.

2022 yilda chet ellik musulmon sayyohlar soni 110 million kishini tashkil etgan bulib, barcha sayyoxlar umumiy sonining 12 foizini tashkil etadi. Bu sezilarli o'sish bo'lib, pandemiyadan oldin 2019 yildagi ko'rsatkich darajasining deyarli 68 foiziga teng. Musulmon sayyohlar soni 140 yilda 2023 millionga ko'payishini va 2024 yilda esa 160 milliongacha ko'tarilishini taxmin qilingan edi. Prognozlariga ko'ra, tomonidan 2028 musulmon sayyoxlar soni 230 millionga yetadi va ulardan kurilishi kutilayotgan daromad mikdori 225 milliard AQSH dollariga teng bushishi mumkin.[22]

O'zbekiston musulmon ziyoratchilarini jalb qilish uchun yaxshi imkoniyatlarga ega. Qolaversa, islom dunyodagi eng tez rivojlanayotgan dindir: 2030-yilga borib musulmonlar soni 2,2 milliardga yetishi prognoz qilinmoqda.[23]

Ziyorat tarixi qadimgi davrlarga borib taqaladigan diniy turizmning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Qadimgi Yunoniston va Rimda diniy maqsadlarda sayohat jamiyat hayotida muhim o'rin tutgan. Qadimgi Yunonistonning eng mashhur muqaddas markazlaridan biri Delfi bo'lib, u mashhur Delfi orakuli tufayli pan-grek markaziga aylandi. Delfi nafaqat yunonlarni, balki ruhoniylar Pifiyaning bashorati uchun Apollon ma'badiga kelgan chet elliklarni ham o'ziga tortdi. Uning bashoratlari siyosatda, urushlarda va hatto kundalik hayotda qaror qabul qilish uchun muhim edi. Bu ziyoratga bo'lgan diniy motivatsiya boshqa manfaatlar bilan qanday kesishishi, nafaqat e'tiqod uchun, balki o'z taqdiri va kelajagini tushunish uchun kelgan sayohatchilarning kuchli oqimini shakllantirishi mumkinligini ko'rsatadi.[24]

Sayohat deganda biz insonlarni o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini malum bir yo'nalish, marshrut bo'yicha amalga oshirishlarini tushunamiz. Qadim zamonlardan buyon dunyo sayohatchiligi davom etgan va o'z taraqqiy bosqichlariga ega.

Ma'lumki, ziyorat – diniy madaniyatning o'ziga xos qadimiy ko'rinishi bo'lib, barcha dinlarda asrlar davomida saqlanib kelayotgan marosimlardan biri hisoblanadi. Masalan, xristianlar Falastinda joylashgan muqaddas joylar, musulmonlar – Makkani, buddistlar – baland tog'li Lxasa shahrini ziyorat qiladi. Muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar dunyo bo'ylab keng tarqalgan bo'lib, ularning paydo bo'lishi qadimgi davrga borib taqalsa-da, bugungi kunda ham insoniyat hamda jamiyat hayotida o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ziyorat diniy ibodat sifatida, insonning o'ziga xos ruhiy holati bo'lib, uning qay tarzda aks etishi mazkur jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar bilan bog'liq bo'ladi.[25]


Inson hayotida dinning vazifalarini empirik tadqiq qilishning eng to'liq usuli Ch.Glok va R.Stark tomonidan yaratilgan bo'lib, diniy ibodatning tajriba o'lchovi (experiential dimension), ritualistik o'lchov (ritualistic dimension), mafkuraviy o'lchov (ideological dimension), intellektual o'lchov (intellectual dimension), natijaviy o'lchov (consequential dimension) ko'rinishlari yordamida ziyoratgohlarda aholining tashrifi antropologik jihatlari tahlil qilingan.[26]

Shuningdek, O'zbekiston hududida ziyoratgohlar masalasini o'rganishda ziyoratgoh nomi bilan bog'liq shaxsni personifikasiya (avliyo, pir, said, xo'ja) maqomi va darajasini tadqiq qilish ham muhim sanaladi. O'zbek xalqi turmush tarzining ajralmas qismiga aylangan "Ziyorat" – atamasi arabcha so'z bo'lib, "biror yerga yoki shaxs huzuriga borish" ma'nosini bildiradi. Ziyorat – islom dinida muqaddaslashtirilgan mozorlar va ziyoratgohlarga borib, muayyan rasm-rusmlarni bajarish

demakdir. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da ziyorat – tashrif, tabarruk joylarga safar qilish, muqaddas joylar, mozor va qabristonlarga borish, ziyoratgoh–ziyosat qilinadigan joy, tabarruk qadamjo, ziyoratxona [27] – ziyoratgohning ziyoratchi tavof qiladigan binosi, ziyoratchi-muqaddas joylarga ziyoratga borgan yoki boruvchi kishi sifatida talqin qilingan. Islom dinida qabrlarni ziyorat qilish savob tarzida izohlanadi.

"Ziyoratgoh" atamasi yakka yoki jamoaviy tarzda boriluvchi, imon keltirganlar ilohiy kuchlarga hurmat bajo keltirish orqali o'zlarining maqsadlarini amalga oshirish uchun ilohiy kuchlardan ko'mak so'rab, murojaat qilinadigan joy ma'nosini anglatadi. Islom dinining hanafiylik mahzabida ziyorat qilish savobli ish, deb qaraladi. Agar ziyorat uchun ko'p mehnat va xarajat sarflansa, shunchalik savobi katta bo'ladi, deb tushunilgan. Masalan, ziyorat uchun ulkan tog' cho'qqisiga ko'tarilish jismoniy va ma'naviy jasorat, kuchli iroda hamda o'ziga xos insoniy fazilatlarni talab etadi. Shu sababli ham ziyoratchilar o'z ruhiyati va shaxsiy ehtiyojidan kelib chiqib, ziyoratgohlarga tashrif buyuradi. Ziyoratgohlarning mashhurligi unda dafn qilingan avliyoning karomatlari bilan chambarchas bog'liq. Muqaddas joylar (mozorlar)da avliyolar ilohiy qudrat egasi sifatida tasvirlanib, ular Qur'on va so'fiylik tasavvurlari hamda xalqona qarashlar bilan boyitilgan.

Yuqoridagi jadvalda ko'rsatilgan ma'lumotlarga asosan Venn diagrammasi orqali ikki turdagi tashrif — "Ziyorat" va "Sayohat" o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklarni ko'rsatishga xarakat kilinganmiz (1-rasm).



1-rasm. “Ziyorat” va “sayohat” tushunchalarning Venn diagrammasi vositasida aniqlangan umumiyliigi va farqi

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlar tahlili “ziyosat turizmi” tushunchasining bir necha turli talqinlarga ega ekanini ko'rsatadi. Tarixiy, madaniy, diniy, iqtisodiy, ruhiy yondoshuvlar o'ziga xos ravishda turli olimlar tomonidan turlicha aksent bilan sharhlanadi. Shu bois “ziyosat

turizmi”ni butunlay bir jihatdan – faqat iqtisodiy yoki faqat diniy nuqtai nazardan tushuntirish yetarli emas. Amalda ushbu tushuncha ko‘p qirrali bo‘lib, unda diniy marosimlar, ma’naviy ehtiyojlar, kultur-tarixiy meros bilan tanishuv, hatto sog‘lomlashtirish yoki tabiat qo‘ynida dam olish kabi aspektlar ham uyg‘unlashib ketishi mumkin.

Ushbu adabiyotlar tahlili asosida maqolaning keyingi qismlarida yangi yondashuv taklif etilishi mumkin: ziyorat turizmida, bir tomondan, kishining ichki ruhiy ehtiyojlari (ma’naviy poklanish, Alloh roziligini topish, taskin izlash), ikkinchi tomondan, madaniy-ma’rifiy jihatlar (tarixiy obidalarini tomosha qilish, turli dinlar madaniyati bilan tanishish) va iqtisodiy samara (turizm infratuzilmasi rivoji, xizmatlar bozori, mehmonxona, restoran, transport) yonma-yon uchraydi. Mazkur ko‘p qirrali yondashuv esa siyosatchilar, turizm tashabbuskorlari va ilmiy tadqiqotchilar uchun birdek ahamiyatga ega.

Xulosa

Diniy turizm jamiyatning ma’naviy, madaniy va iqtisodiy hayotida muhim rol o‘ynaydigan murakkab va ko‘p qirrali hodisadir. Xorijiy va mahalliy ishlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ilmiy jamoatchilikda "diniy turizm" va "ziyosat turizmi" atamallari haqida umumiy tushuncha mavjud yemas. Ularni aniqlashda uchta asosiy yondashuvning mavjudligi madaniy, tarixiy va ilmiy an‘analarning xilma-xilligini aks ettiradi.

Diniy turizm sohasidagi tadqiqotlar va amaliyotni yanada rivojlantirish uchun umumiy terminologiya va tushunchani rivojlantirishga intilish kerak. Bu tadqiqotchilar va amaliyotchilar o‘rtasidagi aloqani yaxshilaydi, turistik oqimlarni boshqarish samaradorligini oshiradi va turizm sanoatining ushbu muhim segmentining barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Yuqoridagi tahlil shundan dalolat beradiki, ziyorat turizmi tushunchasini tor ma’nodagi “dindorlarning muqaddas joylarga tashrifi” sifatida cheklab qo‘yib bo‘lmaydi. U keng qamrovli bo‘lib, bir vaqtda bir necha sohada (diniy, madaniy, iqtisodiy, ma’naviy) ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ilm-fan va amaliyotda ushbu segmentni chuqurroq o‘rganish, munosabatda sistematik yondashuvni qo‘llash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining 18.07.2019 yildagi O‘RQ-549-son «Turizm to‘g‘risida»gi Qonuni, 2-bob, 6-modda
2. «O‘zbekiston — 2030» strategiyasida belgilangan asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlarni amalga oshirishning 2024 yildagi ustuvor chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.03.2024 yildagi PQ-109-son
3. Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) statistik ma’lumotlari, 2022-yil.
4. “O‘zbekiston Respublikasining Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni, 18.07.2019 yilda qabul qilingan (yangilangan tahrir).
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan qarorlari (PQ-5611-son, 05.01.2022 y. va boshq.).Smith, V.L. (ed.) (2012) *Hosts and Guests: the Anthropology of Tourism*, Philadelphia: University of Pennsylvania Press
6. Gisbert Rinsehede (Rinsehede, G. (1992). *Forms of religious tourism*. *Annals of Tourism Research*, 19(1), p. 51-67.
7. Babkin, A. V. (2008). *Special'nye vidy turizma [Special types of tourism]: A textbook*. Rostov-onDon: Phoenix.
8. Brunyasheva L.A. «Religiozniy turizm» i «religioznoe palomnichestvo»: sravnitelno-sopostavitelnyy aspekt // *Universitetskiye chteniya – 2015: Mat. nauch.-metodich. chteniy PGLU*. 2015. S. 25-29.
9. Navruz-zoda Z. B. «Ziyorat turistik klasterini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari» // "IQTISODIYOT VA TURIZM" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali №3 (5) 2022, 104 bet.
10. Kurbanova M. X. Ziyorat turizmiga ijtimoiy hodisa sifatida tarixiy-ilmiy yondashuv. - "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali 1/2023, yanvarfevral (№ 00063)

11. Theobald W. F. The Meaning, Scope, and Measurement of Travel and Tourism // Global Tourism. Third Edition. (ed. by Theobald W. F.). Burlington: Elsevier, 2005. p. 9.
12. Vinokurov Mixail Alekseyevich «Chto takoe turizm?» Tekst nauchnoy stati po spetsialnosti «Prochiye sotsialnie nauki», <https://cyberleninka.ru/article/n/chto-takoe-turizm/viewer>
13. Xodjayeve Nargiza Tavakkalovna «Rol terminov turizma v sovremennoy lingvistike», sbornik tezisov nauchno-prakticheskoy konferensii «Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya», Published January 21, 2023 | Version v1, <https://zenodo.org/records/7556461>Hans Magnus Enzensberger: “Vergebliche Brandung der Ferne. Eine Theorie des Tourismus.” In: Merkur 12 (1958), S. 701–720.
14. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/tour>
15. Izoh.uz — O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2024
16. Sharifova Sh.Sh. «Ziyorat turizmi va uning o‘ziga xosligi», “XXI asrda ilm-fan taraqqiyotining rivojlanish istiqbollari va ularda innovatsiyalarning tutgan o‘rni” mavzusidagi respublika ilmiy-online konferensiyasi materiallari. 114-bet
17. Islom / Ensiklopediya. Z.Husniddinov tahriri ostida. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 2004. – B. 93-94
18. Jo‘rayeva S. O‘zbekistonning janubiy hududlaridagi ziyoratgohlar tarixi va ularning mahalliy aholi hayotida tutgan o‘rni [Matn]: Monografiya / S. Jo‘rayeva. -Toshkent: "O‘zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi", 2021. - 352 b.
19. Oltin silsila. Sahihul Buxoriy. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf va tarjimonlar guruhi. – Toshkent: «Hilol-Nashr», 2021. – B. 129.
20. Fazal Bahardeen, Muslim Travel Market Outlook // Mastercard-CrescentRating | Global Muslim Travel Index 2023. – 18 bet.
21. El-Gohary, Hatem. (2015). Halal Tourism, Is It Really Halal? Tourism Management Perspectives. 19. 10.1016/j.tmp.2015.12.013.
22. Aleksandrova A.Yu. Mejdunarodniy turizm/ Uchebnik. M.: Aspekt Press, 2002. 470 s
23. Berger P., Lukman T. Konstruirovaniye sotsialnoy realnosti. – Moskva: «Medium», 1995. – 323 s.;
24. Xlopkova O.V. Sovremennie problemi issledovaniya religioznosti // Sovremennie issledovaniya sotsialnix problem. – 2012. №9(17), – S.1-6; Vorobjeykina L.I. Analiz tipov religioznoy konsepsii // Fundamentalnie issledovaniya. – 2014. – № 9-5. – S. 1101-1108
25. Islom ensiklopediyasi / Z. Husniddinov tahriri ostida. – Toshkent: O‘zME, 2004. – B. 20.
26. Б.Н Навруз-Зода, Н.С Ибрагимов. Туристик хууд рақобатбардошлиги Монография. Бухоро: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2017-156 б.
27. B. Navruz-Zoda, N.Ibragimov.The measures for improving virtual activity of incoming urban tourism in Uzbekistan.World Journal of Tourism Small Business Management.Volume 1 (3), 2007.43-49.